

“ZAMONAVIY DUNYODA SUN’IY IDROKNING RIVOJLANISHI: YANGI DAVR MUAMMOLARI VA YANGI YECHIMLAR JURNALI”

30-Noyabr, 2025-yil

PIYODALAR XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA INFRATUZILMA VA MADANIYATNING O’RNI

*O‘zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligi Akademiyasi Kirriminalistik
ekspertizalar kafedrası dotsenti, mayor*

Zulfiqorov Abduvahob Abdumalikovich

*O‘zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligi Akademiyasi 3-o‘quv kursi
kursanti, safdor*

Abdusalamov Salohiddin To‘lqin o‘gli

Annotatsiya: Ushbu maqolada piyodalar xavfsizligini ta’minlash masalalari infratuzilma va yo‘l harakati madaniyati nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Piyodalar ishtirokidagi yo‘l-transport hodisalari (YTH) sonining ortib borishi ushbu sohada kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqish zaruratini ko‘rsatmoqda. Tadqiqotda yo‘l infratuzilmasini takomillashtirish, xavfsiz piyodalar yo‘laklarini yaratish, yo‘l belgilarini to‘g‘ri joylashtirish va aholining madaniy xabardorligini oshirish muhim omillar sifatida ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: piyodalar xavfsizligi, infratuzilma, madaniyat, yo‘l belgisi, svetofor, transport tizimi.

РОЛЬ ИНФРАСТРУКТУРЫ И КУЛЬТУРЫ В ОБЕСПЕЧЕНИИ БЕЗОПАСНОСТИ ПЕШЕХОДОВ

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы обеспечения безопасности пешеходов с точки зрения инфраструктуры и культуры дорожного движения. Рост количества дорожно-транспортных происшествий (ДТП) с участием пешеходов указывает на необходимость комплексных мер в данной области. В исследовании анализируются важнейшие факторы, такие как совершенствование дорожной инфраструктуры, создание безопасных пешеходных переходов, правильное размещение дорожных знаков и повышение культурной осведомленности населения.

Ключевые слова: безопасность пешеходов, инфраструктура, культура, дорожные знаки, светофор, транспортная система.

THE ROLE OF INFRASTRUCTURE AND CULTURE IN ENSURING PEDESTRIAN SAFETY

Abstract: This article examines pedestrian safety issues from the perspective of infrastructure and traffic culture. The increasing number of road traffic accidents (RTAs) involving pedestrians highlights the need for comprehensive measures in this field. The

“ZAMONAVIY DUNYODA SUN’IY IDROKNING RIVOJLANISHI: YANGI DAVR MUAMMOLARI VA YANGI YECHIMLAR JURNALI”

30-Noyabr, 2025-yil

study focuses on key factors such as improving road infrastructure, creating safe pedestrian crossings, proper placement of road signs, and raising public awareness of road safety culture.

Keywords: *pedestrian safety, infrastructure, culture, road signs, traffic lights, transport system.*

KIRISH

Bugungi kunda yo‘l harakati xavfsizligi – jamiyat rivojlanishining eng muhim ijtimoiy masalalaridan biridir. Xalqaro statistikalariga ko‘ra, har yili dunyoda 1,2 milliondan ortiq inson yo‘l-transport hodisalarida oqibatida hayotdan ko‘z yumadi, ularning qariyb 23 foizini piyodalar tashkil etadi (Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra). O‘zbekiston sharoitida ham piyodalar ishtirokidagi YTHlar soni hali ham sezilarli darajada yuqori. Shu sababli infratuzilma sifatini yaxshilash bilan birga, yo‘l harakati madaniyatini oshirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Undan so‘ng piyodalar uchun yaratilgan qulay va xavfsiz infratuzilma yo‘l-transport hodisalarini kamaytirishda asosiy omillardan biridir. Piyodalar uchun qulay va xavfsiz infratuzilmani shakllantirish yo‘l-transport hodisalarining oldini olishda asosiy profilaktik-huquqiy omil sifatida namoyon bo‘lib, ushbu infratuzilma transport harakatini tartibga solish, xavfsizlikni ta’minlash va yo‘l harakati ishtirokchilarining huquq hamda manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan majburiy talablar majmuasini o‘z ichiga oladi. Piyodalar harakatini to‘g‘ri tashkil etish, jumladan, trotuarlar, maxsus piyodalar yo‘laklari va yo‘lni kesib o‘tish nuqtalarining belgilanishi Yo‘l harakati qoidalari hamda amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiq ravishda piyodalarni transport oqimidan ajratib, xavf tug‘diruvchi holatlarning yuzaga kelish ehtimolini kamaytiradi. Svetofor bilan tartibga solinadigan yoki yoritilgan piyodalar o‘tish joylari, shu jumladan ko‘tarma (undirilgan) o‘tish yo‘laklari transport vositalari tezligini tabiiy cheklash orqali haydovchilarning ehtiyotkorligini oshiradi. Tezlikni sun’iy cheklovchi inshootlar, “sun’iy notekisliklar”, yo‘lning konstruktiv toraytirilishi va burilish radiuslarining normativ tarzda belgilanishi haydovchilarning majburiy ehtiyot choralari ko‘rishini ta’minlaydi. Yo‘lning yetarli darajada yoritilishi, ayniqsa tungi vaqtda, ko‘rinuvchanlikni oshirib, YTH sodir bo‘lish xavfini kamaytiradi. Piyodalarni himoyalovchi to‘siqlar o‘rnatilishi ularning tartibga solinmagan joylardan yo‘lni kesib o‘tishining oldini olib, xavfsiz o‘tish punktlaridan foydalanishni huquqiy normalar orqali majburiylashtiradi. Jamoat transporti bekatlarining xavfsizlik talablari asosida joylashtirilishi, maxsus platformalar va ajratilgan yo‘laklar tashkil etilishi piyodalar oqimini tartibga solib, transport vositalari bilan to‘qnashuv ehtimolini pasaytiradi.

ASOSIY QISIM

Ta’lim muassasalari atrofida maxsus tezlik cheklovlari, ogohlantiruvchi belgilar, ko‘tarma o‘tish joylari va boshqa majburiy infratuzilma elementlari bolalar xavfsizligini oshiruvchi huquqiy-me’yoriy talablarning ajralmas qismi hisoblanadi. bulardan eng samaralisi hozirgi kunda 3D texnologiyalar asosida yaratilgan piyodalar yo‘laklari so‘nggi

“ZAMONAVIY DUNYODA SUN’IY IDROKNING RIVOJLANISHI: YANGI DAVR MUAMMOLARI VA YANGI YECHIMLAR JURNALI”

30-Noyabr, 2025-yil

yillarda ko‘plab davlatlarda yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlashning innovatsion usullaridan biri sifatida keng qo‘llanilmoqda. Ushbu yo‘laklar optik illyuziya effektiga ega bo‘lib, haydovchiga yo‘l yuzasida balandlikka ega to‘siq bor kabi ko‘rinadi. Natijada haydovchilar avtomatik ravishda tezlikni pasaytirishga majbur bo‘ladi. Bu esa piyodalar ishtirokidagi yo‘l-transport hodisalarining oldini olishda muhim rol o‘ynaydi. Avvalo, 3D yo‘laklarning asosiy afzalligi — ko‘rinarli effektning yuqoriligidir. Odatda oddiy yo‘laklar, ayniqsa kechqurun yoki yoritish yetarli bo‘lmagan hududlarda haydovchilar tomonidan kech seziladi. 3D yo‘lak esa kontrast ranglar, geometrik shakllar va optik ko‘rinish hisobiga uzoq masofadan ham ko‘zga tashlanadi. Bu esa haydovchining reaksiya vaqtini qisqartiradi va to‘qnashuv xavfini kamaytiradi. Ikkinchi afzalligi — qo‘shimcha texnik qurilmalar talab etmasligidir. Tezlik pasaytiruvchi qurilmalar, svetofor yoki signalizatsiyalar o‘rnatish ko‘p hollarda qo‘shimcha moliyaviy xarajatlarni talab qiladi. 3D yo‘laklar esa odatiy bo‘yoqlar va ma‘lum texnik chizmachilik uslubida chizilishi orqali yaratiladi. Shu bois, u arzon, samarali va iqtisodiy jihatdan tejamkor yechim hisoblanadi. Uchinchi muhim ustunlik — haydovchining psixologik hushyorligini oshirishidir. 3D yo‘laklar haydovchini kutilmagan vizual holat bilan to‘qnash kelishga majbur qiladi. Yo‘l yuzasida “baland” obyekt ko‘rinishi, xayolan bo‘lsa-da, haydovchini ehtiyotkorlikka undaydi, natijada u avtomatik tarzda tezlikni pasaytiradi. Bu xususiyat ayniqsa maktablar, bog‘chalar, piyodalar oqimi yuqori bo‘lgan hududlar uchun juda muhim hisoblanadi. To‘rtinchidan, 3D yo‘laklar kechasi ham samaralidir. Ular o‘ziga xos shakl va rang kombinatsiyalari sababli avtomobil chiroqlari yoritganda ham aniq ko‘rinadi. Bu oddiy yo‘laklarda kuzatiladigan yoritish muammosini sezilarli darajada bartaraf etadi. Beshinchidan, ushbu infratuzilma elementi yengil yangilanishi va ta‘mirlash osonligi bilan ajralib turadi. 3D effekt buzilgan holatlarda, bo‘yoqlarni qayta chizish orqali yo‘lak qayta tiklanadi va bu katta vaqt yoki resurs talab qilmaydi. Shu o‘rinda 3D yo‘laklarning tarbiyaviy ahamiyatini ham ta‘kidlash joiz. Ular yo‘l harakati madaniyatini oshiradi, haydovchilarni e‘tiborli bo‘lishga undaydi, piyodalarda esa yo‘lni belgilangan joyda kesib o‘tish odatini mustahkamlaydi.

Videokuzatuv vositalari va avtomatlashtirilgan nazorat tizimlari yo‘l harakati qoidalariga rioya etilishini ta‘minlab, huquqbuzarliklarni aniqlash, qayd etish va ma‘muriy javobgarlik choralari qo‘llashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, shaharsozlik va transport logistikasi doirasidagi normativ rejalashtirish, transport oqimini optimallashtirish va piyodalar harakatiga qulay sharoit yaratish orqali YTH xavfini kamaytiradi. Mazkur omillarning barchasi piyodalar xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan huquqiy, texnik va tashkiliy chora-tadbirlar majmuining integral tarzda amalga oshirilishi orqali yo‘l-transport hodisalarining kamayishiga bevosita xizmat qiladi.

Zamonaviy shaharsozlikda “Aqlli shahar” (Smart City) texnologiyalaridan foydalanish orqali piyodalar xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha yangi imkoniyatlar ochilmoqda. Masalan, aqlli svetoforlar va harakat sensori orqali ishlovchi yoritish tizimlari yo‘lovchilarni aniqlab, avtomatik tarzda xavfsizlik choralari ishga tushiradi. Yo‘l harakati madaniyati va uning ahamiyatiga kelsan yo‘l infratuzilmasi qay darajada zamonaviy bo‘lmasin, agar

“ZAMONAVIY DUNYODA SUN’IY IDROKNING RIVOJLANISHI: YANGI DAVR MUAMMOLARI VA YANGI YECHIMLAR JURNALI”

30-Noyabr, 2025-yil

fuqarolarning yo‘l harakati madaniyati past bo‘lsa, xavfsizlikni to‘liq ta‘minlab bo‘lmaydi. Yo‘l harakati madaniyati quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Piyodalar tomonidan qoidalarini bilish va unga amal qilish;
- Haydovchilarning piyodalarga nisbatan hurmat va e‘tibor bilan munosabatda bo‘lishi;

- Ota-onalar va o‘qituvchilar tomonidan bolalarda yo‘l madaniyatini erta yoshdan shakllantirish. Madaniyatni oshirishda OAV, ijtimoiy reklama, ta‘lim muassasalarida maxsus darslar va YHXBB tomonidan o‘tkazilayotgan profilaktik tadbirlar katta ahamiyatga ega va fuqarolarni (piyodalarni) yo‘l harakati qoidalarini buzganlik uchun ma‘muriy javobgarlikka tortish Mas‘uliyat O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi (MJtK)ning 138-moddasi asosida amalga oshiriladi. So‘nggi yillarda mamlakatimizda piyodalar xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha bir qator amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan:

- “Xavfsiz yo‘l” loyihasi doirasida svetoforlar yangilanmoqda;
- Piyodalar o‘tish joylari soni oshirilmoqda;
- Yo‘l belgilarining xalqaro standartlarga muvofiqligi kuchaytirilmoqda;
- Ta‘lim muassasalarida “Yo‘l harakati madaniyati” darslari yo‘lga qo‘yilmoqda.

Kelgusida esa, yo‘l infratuzilmasini raqamlashtirish, piyodalar harakatini tahlil qiluvchi “aqli kuzatuv tizimlari”ni joriy etish orqali yanada samaradorlikka erishish mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak piyodalar xavfsizligini ta‘minlash – faqat texnik yoki tashkiliy masala emas, balki keng ijtimoiy madaniy masaladir. Yo‘l infratuzilmasini zamonaviylashtirish bilan bir qatorda, fuqarolarning ongida yo‘l harakati madaniyatini shakllantirish, bolalar va yoshlar o‘rtasida profilaktik targ‘ibotni kuchaytirish eng muhim vazifa hisoblanadi. Infratuzilma va madaniyat uyg‘un holda rivojlansa, yo‘l-transport hodisalari sezilarli darajada kamayadi, jamiyatda xavfsiz hayot kechirish muhiti yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1 O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi (01.04.1995)
2. YO‘L HARA KATI QOIDALARINI TASDIQLASH TO‘G‘RISIDA (12.04.2022-yilgi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 172-sonli qarori)
- 3.O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi YHXBB:<https://yhxbb.uz>
- 4.O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi:<https://www.mintrans.uz>
- 5.O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi:<https://stat.uz>